

THE IMPORTANT ROLE OF EDUCATION IN EDUCATION OF YOUTH

Goziyeva Feruza Otakoziyevna

Teacher of Fergana Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs

Sultanov Sardorbek Nomonjon ogli

Student of the Faculty of Military Education of FarSU

Abdumutalov Mukhriddin Mamazul

Student of the Faculty of Military Education of FarSU

ANNOTATION

This article discusses the importance of educating young people, how to conduct it, and how to educate young people to be interested in learning.

Keywords: Upbringing, education, human, beginning of education, primary education, school education, higher education.

"What bothers you if you ask me?" if you ask
the answer is the education and upbringing of our children.
(SHAVKAT MIRZIYOEV)

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Ta'lim insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Ta'limsiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'lolmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ta'lim tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "Ta'lim" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda ta'lim inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda ta'lim faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi ta'lim tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Inson hayotga kelibdiki bu dunyoga o'zini tarbiyasi bilan birinchi o'rinda nom qozonishi mumkin. Tarbiyani ona farzandi uni vujudida ekanligidayoq berishni boshlashi kerak. Qanday deysizmi? Kitob orqali. Ona qancha ko'p kitob o'qisa, qancha ko'p o'zini yomon illatlardan saqlasa bunda farzand odob-axloq bo'yicha juda chiroyli tarbiyali inson, yetuk kadr bo'lib yetishadi. Tarbiya- bu bizga hayot kabi juda go'zal ne'matdir. Bunday ulug' ne'matdan har kim ham baxramand bo'la olmaydi. Bu ne'mat avval aytib o'tganimdek ona vujudida ekanligida beriladigan g'ozal sabr, kuchli e'tiqod natijasidir. O'zingiz o'ylab ko'ring sizni ko'rganda

odamlar „Tarbiya bergan ota-onangga rahmat" desa qanchalik xursand bo'lasiz... Buning uchun avvalo onangizga go'zal sabr, kuchli e'tiqod bilan dunyoga keltirgan onangizga, keyin esa sizni haloldan rizq topib kelib yedirgan otangizga rahmat aytishingiz lozim.

Har bir inson hayoti davomida, tug'ilish paytidan to keksalikka qadar, ta'lim jarayonida uzoq yo'lni bosib o'tadi - avval ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallaydi, so'ngra ularni mustahkamlaydi va o'zi uchun yangi narsalarni ishlab chiqishni va o'rganishni to'xtatmaydi. Odamlar bilim va ta'limni nafaqat maktabda olishadi, maktab allaqachon jozibali "hayot haqidagi fan" iborasini olgan.

Insoniyat ta'limni quyidagicha bosqichlarda ifoda etishadi:

-Ta'limning boshlanishi;

-Boshlang'ich ta'lim ;

- Maktab ta'limi;

-Oliy ma'lumot;

-Amaliy ta'lim;

-O'z-o'zini tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7- moddasida esa ta'lim turlari ushbu talqinda o'z ifodasini topgan:

-maktabgacha ta'lim va tarbiya;

-umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

-professional ta'lim;

-oliy ta'lim;

-oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

-kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

-maktabdan tashqari ta'lim.

Ta'limni osonlashtirish jarayoniga o'rganishyokisotibolish bilim, ko'nikmalar, qiymatlar, e'tiqodlar va odatlar kiradi. Ta'lim usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi o'qitish, trening, hikoya qilish, munozara va yo'naltirilgan tadqiqot. Ta'lim ko'pincha o'qituvchilar rahbarligida amalga oshiriladi, ammo o'quvchilar ham o'zlarini tarbiyalashlari mumkin.

Yoshlarga ta'lim berishda eng muhimi bu- ularga tushuntirish qiziq bo'lgan tomon bilan tushuntirishdir. Har doim pedagog ta'lim beruvchi bolalar bilan do'stona gaplashishi va ularni qanday mavzu qiziqtirish haqida bilishi kerak. Ta'lim bilan tarbiya doimo uzviy bog'liqdir. Buni hech kim o'zgartira olmaydi. Tarbiya bor joyda o'sish boladi, tarbiya bor joyda har doim tinchlik omonlik hukm suradi.

Xulosa qilib aytganda yoshlarga ta'lim berishda har doim tarbiyani birga olib borish kerak. Axir bir bolaga 7 mahalla ota-ona deganidek, biz hech qachon yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lmasligimiz kerak. Bir bolani tarbiyalash uni yetuk kadr bo'lib yetishi uchun unga juda ko'p mehnat va zahmatlar bilan chin dildan o'rgatish kerak. Shundagina jamiyat fuqarolik jamiyatiga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://uz.mazorhomes.com/5290-the-role-of-education-in-human-life.html>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>
3. Shodmonova Sh., Tilobova N. “Tarbiyaviy ishlar uslubi” o’quv predmetidan ta’lim texnologiyasi – T.: TDIU, 2006.
4. <https://lex.uz/docs/-5013007>.